



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

20 22 y. " 01 " avgust

N° 01-10/236

Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2022-yil 24-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 01-10/196-son buyrug'iga o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni, Vazirlar Mahkamasining "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2022-yil 24-iyundagi 01-10/196-son buyrug'iga 2-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Yoshlar ishlari agentligi direktorining
2022-yil 24-iyundagi
01-10/196-son buyrug'iga
2-ilova

Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati Xarid komissiyasi TARKIBI

I. Komissiya raisi:

1. Yoshlar ishlari agentligi direktorining tegishli yo'nalish bo'yicha o'rinbosari

II. Komissiya a'zolari:

2. Ishlar boshqarmasi boshlig'i.
3. Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i.
4. Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat va ichki audit xizmati boshlig'i.
5. Yuridik byuro boshlig'i.
6. Ichki audit xizmati bo'yicha bosh mutaxassis.
7. Boshqarma (bo'lim) boshlig'i (davlat xaridi yo'nalishi bo'yicha).

III. Komissiya mas'ul kotibi:

Ishlar boshqarmasi bosh mutaxassisi.

Izoh:

1. Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

2. Zarurat bo'lganda komissiya tarkibiga Agentlikning tegishli yo'nalish bo'yicha boshqa xodimlari kiritilishi mumkin. Bunda, davlat xaridi media xizmatini yoki media mahsulotlarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lganda Axborot va media xizmati rahbari komissiya tarkibiga kiritilishi shart".

2. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Direktor



A.Sa'dullayev